Havo aralashgan yuk, yuk bo‘shatiladigan siklon 4 (cho‘kma kamera) ga kelib tushadi va aralashma tezligi truboprovod va bo‘shatgich kesimlarining har xilligi tufayli keskin ravishda pasayadi. Aralashma oqimi yo‘nalishi ham o‘zgaradi. Buning natijasida yuk zarrachalari o‘zining kinetik energiyasini yo‘qotadi va kamera 4 tubiga cho‘kadi. Yuk zarrachalaridan xolis bo‘lgan havo truboprovod orqali chang tutgich 6 ga kelib tushadi, filtrlanadi va toza xavo xolida vakkum nasos 7 va patrubok 8’ orqali atmosferaga chiqib ketadi. Kamera 4 tubiga cho‘kkan yuk shlyuzli zatvor 5 orqali tashqariga olinadi va biror bunker yoki transport vositasiga bo‘shatiladi.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, so‘rib oluvchi pnevmatik qurilma bir vaqtini o‘zida bir necha nuqta(joy)lardan yukni so‘rib olib, bitta yuk tushirish punkitiga yo‘naltirishi mumkin. So‘rib oluvchi pnevmatik qurilma asosan oson to‘kiladigan, changsimon va mayda zarrachali yuklarni uncha uzoq bo‘lmagan masofaga tashishda ko‘p qo‘llaniladi.

Dam berib haydovchi pnevmatik qurilmalarda (10- rasm, *b*), kompressor 11 sistema ichida 0,5-0,6 MPa gacha bosim hosil qiladi.

Siqilgan havo, xavo yig‘gich (vozduxozabornik) resiver 10 orqali truboprovod 3 ga o‘tadi, bu vaqtda unga vintli ta‘minlagich 9 dan yuk kelib tushadi. Bundan hosil bo‘lgan yuk-havo aralashmasi truboprovod orqali yuk tushadigan siklon 4 kelib tushadi va bu erda yuk zarrachalari cho‘ka boshlaydi. YUkni asosiy qismdan ozod bo‘lgan havo filtr 6 ga o‘tadi va patrubkalar 8 va 8’ orqali atmosferaga chiqarib yuboriladi. Filtr 6 va yuk kelib tushadigan siklon 4 dan yukni chiqarib olish shlyuzli zatvor 5 orqali amalga oshiriladi.


Dam beruvchi qurilmalar yukni bir joyni o'zidan ergashtirib uni truboprovodning bir necha tarmoqlari bo'yicha tashlab o'tadi. Pnevмотransportning bu turi yirik bo'lakli(kuskovoy) yuklarni uzoq masofalarga uzatishda keng qo'llaniladi.

Pnevмотransport qurilmalarining uchinchi turi yuqoridagilarni qo'shilmasi (suruvchi va dam berib xaydovchi) bo'lib, uning sxemasi 10-rasm v da ko'rsatilgan.

Diqqat bilan qarab uni tushunib olish o'quvchiga qiyinlik tug'dirmagani uchun, biz u xakda to'xtab o'tirishni lozim topmadik.

Pnevмотransport qurilmalarining asosiy uzellariga yuklarni magistral (asosiy) yo'lga qabul qiluvchi qurilma, trubalar (havo yuradigan-vozduxovod), kollektorlar, xavo xaydovchi mashinalar ventilyator bilan birga, yuklarni xavodan ajratuvchi siklonlar va filtrlar kiradi.

Pnevмотransport qurilmalarida ko'pincha havoni yaxshilab tozalash uchun ikkitadan siklon va filtr qo'yiladi. 11- rasmda siklon bilan filtrning umumiy sxemasi keltirilgan.



11- rasm. Pnevмотransport qurilmalarida o'rnatiladigan filtrlar:
a - suvli; b – silkitadigan materialdan g'ilofli.

3- jadvalda esa Giprodrevprom tomonidan chikarilgan siklonlarning ayrim asosiy parametrlari berilgan.

3 -jadval

Ko'rsatkichlar nomi	S-950	S-1150	S-1400	S-1500
O'tkazish qobiliyati, m ³ /soat	9500	14000	20000	23000
Tashqi diametri,mm	950	1150	1400	1500
Balandligi, mm	4335	5255	6395	6865

Pnevmotransport qurilmasi ustida bajariladigan asosiy hisoblash ishlari.

Pnevmotransport qurilmalarini hisoblash ishlarida uning ish unumi, truboprovodning uzunligi va konfiguratsiyasi xamda yukning fizik-mexanikoviyl xossalari boshlang'ich ma'lumot bo'ladi. Hisob-kitob ishlari, odatda, quyidagi ketma-ketlikda bajariladi:

- yuk zarrachalarining uyurmalanish tezligi (skorost vitaniya),
- havo oqimi tezligi,
- berilgan ish unumi va aralashma konsentratsiyasiga qarab havo sarfi va truboprovod diametri,
- magistral yo'l (trassa)ning uzunligi va uning shakliga ko'ra truboprovoddagi gidravlik qarshiliklar va bosimni pasayish farqi, va nixoyatelektrodvigatelning quvvati aniklanadi.

Bu aytilgan parametrlarni bitta misol (masala) echish orqali tushuntirishga harakat qilamiz.

Misol. Soatiga 3600 kg yog'och qirindisini bir joydan ikkinchi joyga o'tkazadigan pnevmotransport qurilmasini hisoblash. Qirindining sochilish zichligi $\rho_g=500 \text{ kg/m}^3$. Tozalovchi qurilma sifatida Giprodrevprom tomonidan chiqarilgan siklondan foydalaniladi.

Echish. Silaev A.B. kitobidagi 21- jadvaldan aralashma (xavo + yuk zarrachalari) konsentratsiyasi μ topiladi. U yog'och qirindisi uchun 0,2-0,7 ga teng. Gorizontal trubada havo tezligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V = S_2 \mu^{0,45} + 0,01 \rho_g + v$$

$$V_g = 5,17 \cdot 0,7^{0,46} + 0,01 \cdot 500 + 7 = 16 \text{ m/sek},$$

bu erda: $S_2 = 5,17$ (mayda payraxalar uchun) emperik koeffitsient;
 v - o'zgarmas konstanta, $7 \div 11$ atrofida bo'ladi.

Havo sarfi quyidagi formuladan topiladi:

$$Q_v = \frac{Q_e}{\rho_g \mu} = \frac{3600}{1,2 \cdot 0,7} = 4300 \text{ m}^3/\text{soat}$$

bu erda: ρ_v – havo zichligi, kg/m^3 .

Aralashma konsentratsiyasi unchalik yuqori bo'lmagani uchun ($\mu=0,7$) vertikal trubalardagi havo tezligini xam $V_v = 16 \text{ m/sek}$ deb qabul qilamiz.

Truboprovod diametri quyidagi formulaorqali topiladi:

$$d = 0,0188 \sqrt{\frac{Q_b}{V_g}} = 0,0188 \sqrt{\frac{4300}{16}} = 0,308 \text{ m}$$


Truboprovodning gorizontal uchastkalarida bosimning pasayishi quyidagicha topiladi:

$$H_{gor} = \frac{1}{2} \cdot \frac{\lambda}{d} l_g \cdot \rho \cdot g_{zop}^2 \cdot (1 + \kappa \cdot \mu)$$

$$H_{gor} = \frac{1}{2} \cdot 0,057 \cdot 110 \cdot 1,2 \cdot 16^2 (1 + 0,78 \cdot 0,7) = 1550 Pa$$

bu erda: $\lambda/d = 0,057$ (Silaev A.B. kitobi, 97- rasmga karang, $d = 300mm$, $V = 20$ m/sek xolati uchun aniqlanadi).

$$l_g = 10 + 100 = 110 m \text{ (Silaev A.B., 98-rasm)}$$



12 – rasm. Tashuvchi pnevmoqurilma:

1 – ventilyator; 2- shlyuzli zatvor; 3 – siklon.

Vertikal truboprovoddagi (uzunligi $L_v=8m$) bosim yo‘qolishi (pasayishi) quyidagi formula orqali topiladi:

$$N_{ver} = \frac{1}{2} \cdot \frac{\lambda}{d} \cdot L_b \cdot \rho \cdot g_{zop}^2 \cdot (1 + \kappa \cdot \mu) + \mu \cdot \rho \cdot g \cdot h$$

bu erda: L_v – barcha vertikal uchastkalar yig‘indisi, m;

h – tashiriladigan materialni ko‘tarish balandligi, m;

k – qiymati Silaev A.B. kitobining 22 jadvalidan olinadi.

$$H_{ver} = \frac{1}{2} \cdot 0,057 \cdot 8 \cdot 1,2 \cdot 16^2 (1 + 0,78 \cdot 0,7) + 0,7 \cdot 1,2 \cdot 9,81 \cdot 8 = 171 Pa$$

Materialni yuklash davrida yo‘qoladigan bosim miqdori (Pa) quyidagi formula orqali topiladi.

$$N_{usk} = \frac{1}{2} \cdot \mu \cdot \rho \cdot g^2$$

$$N_{usk} = \frac{1}{2} \cdot 0,7 \cdot 1,2 \cdot 16^2 = 117 Pa$$

Bosimni joylardagi yo‘qolishi (otvod, perexod, troynik, priemnik, zadviyka, siklon, filtr) Silaev A.B. kitobidagi (232) va (241) formulalardan foydalanib topiladi.

$$N_m = \frac{1}{2} \cdot \varsigma \cdot \rho \cdot g^2 \quad (232) \quad \text{va} \quad N_1 = \varepsilon N = N (1 + \kappa \mu)$$

bu erda: N_m - joylardagi qarshilik tufayli bosimning yo‘qolishi,

g - joylardagi oqim tezligi, m/sek,

ς – joylardagi qarshilik koeffitsienti, u berilgan bo‘ladi (Silaev A.B. kitobining 224 beti). (241) formuladagi kqiymati 1,4 ga teng deb qabul qilinadi.

Ta’minlagich (shlyuzli zatvor) uchun

$$N_m^I = \frac{1}{2} \cdot 0,45 \cdot 1,2 \cdot 16^2 = 72 Pa$$

bu erda: $\varsigma = 0,45$ (kitobning 224 betiga qarang).

Ikkita tirsak (kolena) uchun

$$N_m^{II} = \frac{1}{2} \cdot 0,605 \cdot 1,2 \cdot 16^2 = 97 Pa$$

$$N_m^{III} = \frac{1}{2} \cdot 0,83 \cdot 1,2 \cdot 16^2 = 133 Pa$$

Joydagi qarshiliklar yig‘indisi

$$\Sigma N_m = 72 + 97 + 133 = 302 Pa$$

$$N_m = (1 + \kappa \mu) \Sigma N_m = 1,545 \cdot 302 = 465 Pa$$

Masalashartigako‘ra Gipro drev proms siklonlaridan foydalaniladi, uning uchun $\xi=1$ qabul qilinadi (kitobning 224 betiga qarang).

SHuning uchun havoni tozalashdagi bosim yo‘qolishi

$$N_{toz} = \frac{1}{2} \cdot \varsigma \cdot \rho \cdot g^2 = \frac{1}{2} \cdot 1 \cdot 1,2 \cdot 16^2 = 154 Pa$$

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda umumiy yo‘qolgan bosim

$$N_{umum} = 1550 + 171 + 465 + 117 + 154 = 2457 Pa$$

Bosim yo‘qolishi va havo sarfi uchun chiqqan natijalarni 5% ga oshiramiz, chunki har doim hisobga kirmay qolgan yo‘qolishlar mavjud bo‘ladi. SHunday kilib,

$$(N_{umum})_{xisob} = 1,05 \cdot 2457 = 2580 Pa$$

$$Q_{xisob} = 1,05 \cdot Q_v = 1,05 \cdot 4300 = 4520 \text{ m}^3/\text{soat}$$

Barcha bosimning yo‘qotishlar miqdori (yig‘indisi) 4000 Pa dan oshmagani uchun havo haydash mashinasiga tegishli ventilyatorni SP7- 40 №5 ini tanlab olamiz, uning uchun

Q_{xisob} miqdori 4520 m³/soat,

$$N_{xisob} = 2,580 \text{ kPa}, n = 2200 \text{ min}^{-1},$$

$\eta = 0,56$ ga tengdir.

Shulardan kelib chiqqan xolda elektrodvigatelning quvvati

$$N = \frac{Q \cdot H}{3600 \cdot \eta} = \frac{4520 \cdot 2,580}{3600 \cdot (0,56 \cdot 0,95)} = 6,0 \text{ kVt}$$


GIDRAVLIK TRANSPORT

Gidravlik transport materiallarni suv oqimi yordamida tashiydigan transport vositasidir. Uning bosimli va bosimsiz turlari mavjud. Hidravlik transportning qo‘llaniladigan soxalari juda keng va hilma- xildir. Lekin biz uchun yog‘och va uning chiqindilarini, qog‘oz va karton massalarini boshqa joylarga tashishda ishlatiladigan uning turlari ko‘proq qiziqtiradi.

Qattiq jismlarni gidravlik trubalarda tashish. Hidravlik transportlarda sochiluvchan yuklar suyuqlik (suv) oqimida trubalardan oqizilib, bir joydan ikkinchi joyga tashiladi. YUklarni suv bilan aralashmasi suvli aralashma (gidrosmes) deb ataladi. Hidrotransport va pnevmotransport qurilmalarining ishlash prinsiplari bir-biriga aynan o‘xshashdir. Birinchisida oqizuvchi agent suv bo‘lsa, ikkinchisida havo oqimi kuchidir.

Sanoatda gidrotransportning asosan ikki ko‘rinishi qo‘llaniladi: haydovchi va so‘rib oluvchi. Ular 13 - rasmda aks ettirilgan.

Birinchi tur qurilmalarda (a) nasos 1 suvni rezervuardan yoki suv xavzasi 2 dan so‘rib oladi va tuba 3 orqali magistral yo‘l 6 ga uzatadi. Transport uchastkasining boshlanish qismida bunker 4 o‘rnatilgan bo‘lib, undan yuk maxsus ta‘minlagich 5 orqali truboprovod 6 ga so‘rib olinadi. YUklar truboprovod oxirida to‘kilish joyi 7 ga kelib tushadi.



13 – rasm. Qattiq jismlarni gidravlik usulida tashuvchi qurilma:
a – haydovchi, b – so‘ruvchi.

A – sxemasi uchun:

1 – nasos, 2 – suvli idish yoki rezervuar, 3 – truboprovod, 4 – bunker, 5 – ta‘minlagich, 6 – magistral yo‘l, 7 – to‘kilgan yuk

b – sxema uchun:

1 – lotok, 2 – aralashtirgich, 3 – pulpa nasos, 4 – truba, 5 – groxot (suvdan ajratgich), 6 – voronka, 7 – to‘kilgan yuk, 8 – suv rezervuari, 9 – nasos, 10 – truba (kaytar suv uchun)

Ikkinchi turdagi qurilmada (*b*) yuk lotok 1 dan aralashtirgich 2 ga kelib tushadi, suv bilan aralashib gidroaralashma hosil qiladi. Maxsus pulpa nasos 3 gidroaralashmani so‘rib truba 4 orqali to‘kiladigan joyga uzatadi; yuk katta sim g‘alvir (groxot) 5 da suvdan ajraladi. Suv esa voronka 6 orqali oqib rezervuar 8 ga kelib tushadi. Yuk esa sim g‘alvir ustidan tukiladigan joy 7 ga kelib tushadi. Rezervuar 8 dagi suv nasos 9 orqali so‘rib olinadi va truba 10 orqali aralashtirgich 2 tomon oqiziladi (quyiladi).

Har ikkala sxema xam xuddi pnevmotransportda bo‘lgani kabi o‘zining afzal va kamchiliklariga egadir.

Gidrotransport kurilmalarining asosiy elementlari nasos, ta‘minlagich va truboprovoddir.

Maydalangan yog‘ochlarni truboprovod orqali tashish. Xar xil suyuqlik, gaz va xattoki maydalangan qattiq materiallarni truboprovod orqali tashish (transportirovka kilish) ularni iktisodiy jixatdan yuqori samara berishni ko‘rsatadi. Materiallarni truboprovodlar orqali bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirish temir yo‘l transportiga qaraganda 3 marta samarali ekanligi bizga adabiyotlardan ma‘lum.

Oʻrmon va yogʻochsozlik sanoatida materiallarni truboprovodlar yordamida tashish, eng avvalo yogʻoch payraxalari va uning poʻstloqlari uchun koʻproq xarakterlidir.

Truboprovodli gidrotansportning asosiy uzellari tuzilishi. Trubalar asosan poʻlatdan yasalgan boʻlib, ammo keyingi vaqtlarda poʻlat trubalar bilan bir qatorda shishaplastikli trubalardan (SVAM) foydalanish xam yaxshi natija bermoqda. Ular zanglamaydi, ich tomoni unchalik gʻidir-budir emas, xajmiy ogʻirligi kam va ular mustaxkamligiga koʻra poʻlat trubalardan qolishmaydi. Trubalar bir-biri bilan rezina zichlagichlari koʻyib muftalar yordamida birlashtiriladi, yoki payvandlanadi yoki elimlab tutashtiriladi. Mayda boʻlakli yuklar uchun suvning truboprovoddagi tezligi 1-2 m/sek, yirikroq boʻlaklar uchun esa (boʻlaklar oʻlchami 10 sm gacha) 5-6 m/sek atrofida boʻladi. Trubalar diametri 150-160 mm.

Truboprovodlarning oʻtkazish qobiliyatini xisoblash. Maydalangan yogʻochlarni trubalar orqali tashishda ularni oʻtkazish qobiliyati muxim rol oʻynaydi va u quyidagicha xisoblanadi:

$$Q = \omega \cdot C \cdot \sqrt{R \cdot i} \cdot \varphi$$

bu erda :

Q - vaqt birligi ichida truboprovod koʻndalang kesim yuzasidan

oʻtadigan yuk mikdori, m^3 / sek ;

ω – trubaning koʻndalang kesim yuzasi, m^2 ;

S – SHezi koeffitsienti,

R - gidravlik radius, m;

i - gidravlik qiyalik, % (u kamida 0,01ga teng);

φ - aralashma konsistensiyasi, $\varphi = 0,2 - 0,25$

Koeffitsient S quyidagi formula orqali topiladi:

$$S = R \cdot \frac{y}{n}; \quad u = (1,3 \div 1,5) \sqrt{n}$$

bu erda: n - gʻadir-budirlik koeffitsientlari, $n \approx 0,012$.

Gidravlik radius R trubadagi suyuqlik oqimi koʻndalang kesim yuzasining, uning xoʻllanuvchi perimetriga boʻlgan nisbati orqali aniqlanadi.

Trubadan oquvchi suv miqdori esa taxminan quyidagi formula orqali topiladi:

$$Q_{suv} = \frac{Q}{\varphi}$$

Tekshirish uchun savollar:

1. Soʻruvchi pnevmatik qurilmalar haqida nima bilasiz?

2. Dam berib haydovchi pnevmatik qurilmalar haqida nima bilasiz?
3. Pnevmatik qurilmalarning asosiy uzellarini sanab ko'rsating?
4. Pnevmatik qurilmalarning afzal tomonlarini ko'rsating?
5. Pnevmatik qurilmalarning kamchilik tomonlarini ko'rsating?
6. Siklon -950, S- 1150, S -1450 larda S – harfi siklonning qisqartma bosh harfi. Undan so'ng kelayotgan son (raqamlar) nimani anglatishini aytib bering?
7. Gidravlik transport nima, bunday deb nomlanishiga sabab?
8. Maydalangan yog'och bo'laklarini truboprovodlar yordamida tashishning temir yo'l transportida tashishga qaraganda afzal tomoni bor yoki yo'qligini ko'rsating?

Tayanch so'z va iboralar:

pnevmatik transport, gidravlik transport, trassa, gorizontal va frontal uchastka, so'ruvchi va haydovchi pnevmatik qurilma, siklon, tirsak (koleno), gidroaralashma, havo-yuk zarrachalari aralashmasi.

4 - MA'RUZA.

ER USTIDA YURADIGAN RELSSIZ VA RELSLI TRANSPORT VOSITALARI

Reja:


1. Relssiz transport va uning turlari.
2. Qo'l kuchi yordamida va o'zi yurar aravachalar.
3. Elektryuklagich va elektrshtablerlar.
4. Avtoyuklagichlar.
5. Transport vositalari sonini xisoblab chiqarish.
6. Relsli transport va uning turlari.

1. Relssiz transportning asosiy afzalligi uning avtonomligidir, ya'ni uning harakati trassa traektoriyasi (izi) bilan bog'liq emasligidir. Bundan tashqari yuklarni uning yordamida istalgan joylarga ko'chirib tushirish mumkin.

Relssiz transportlarning kamchiliklariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: ular yuradigan yo'l etarli miqdorda qattiq zaminga ega bo'lishi va yuklarni vertikal yoki yuqori qiyalikka ega bo'lgan yo'llarda tashish mumkin emasligidir. Sellyuloza va yog'ochsozlik sanoatida eng ko'p ko'llaniladigan relssiz transport turlariga: qo'l aravachalari, etajerkali aravachalar, o'zi yurar aravachalar, elektr va avtoyuklagichlarni ko'rsatish mumkin.

Qo'l aravachalari asosan uncha uzoq bo'lmagan (30-50m) masofalarga va engil yuklarni tashishda ko'llaniladi.

14 - rasmda xom-ashyolarni bo'limlariga jo'natishda foydalaniladigan ko'l aravachasining ko'rinishi keltirilgan.



14 – rasm. Qo‘l aravacha sxemesi.

Uning to‘rtta rezina bilan qoplangan g‘ildiragi aylanadigan (buriladigan) xususiyatga ega.

Aravachaning asosiy ko‘rsatkichlari:

Yuk ko‘taruvchanligi, kg1000


Gabarit o‘lchamlari, mm:

uzunligi.....2000

eni (kengligi).....1400

balandligi.....1240

15 - rasmda etajerkali aravachaning umumiy ko‘rinishi berilgan.



15 - rasm. Etajerkali aravachaning sxemasi:


1 – karkas; 2,3 – g‘ildiraklar; 4 – polka; 5 – karkas ramasi.

U ham sexlar ichida bir joydan ikkinchi joyga tashishga mo‘ljallangan. Uning to‘rtta rezina bilan qoplangan g‘ildiraklari aylanib burilish xususiyatiga ega. Quyida etajerkali aravachaning asosiy ko‘rsatkachlari keltirilgan:

YUk ko‘taruvchanligi, kg	700
Gabarit o‘lchamlari, mm:	
uzunligi.....	1400
eni (kengligi).....	1200
umumiy balandligi.....	2050
poldan birinchi polkagacha bo‘lgan balandligi.....	530

2. ROLIK PLATFORMALI QO'L ARAVACHALARI

Uning sxemasi 16 - rasmda keltirilgan.



16 – rasm. Aylanma platformali travers arachaning sxemasi:
1 – platforma; 2 – aylanma o‘q; 3 – rama; 4 – g‘ildirak; 5 – yo‘l fiksatori;
6 – perila.


U shchit detal to‘plam (taxlam)larini ularga mexanikaviy ishlov berish va pardozi berish uchun ushbu ishlarni bajaradigan liniya yoki davriy ishlaydigan stanoklar yoniga keltirish yoki ulardan olib ketishda xizmat ko‘rsatadi. Aravacha detal to‘plamlarini dumalatish (zakatyvat) uchun rolikli platforma bilan jixozlangan. Rolganglar ustidagi shchit detallarni sirpanib ketmasligi uchun ushlab turish mexanizmi (stoporeniya) ko‘zda tutilgan. Ushlab turish richagni pastki xolatga o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Aravachani yuklash va undan yukni tushirishda uni yurib ketmasligi uchun rolganglarning oxirgi seksiyasiga ilgak (zatsepa) moslamasi o‘rnatilgan.

Quyida rolik platformali qo‘l aravachasining asosiy ko‘rsatkachlari keltirilgan.

Yuk ko‘taruvchanligi, kg	800
Gabarit o‘lchamlari, mm:	
uzunligi.....	1860
eni(kengligi).....	760
umumiy balandligi.....	965
poldan rolikkacha bo‘lgan balandligi.....	280-365


O'zi yurar aravachalar. O'zi yurar aravachalar ancha og'ir yuklarni (500kg dan ko'p) 100-500 m va undan ortiq masofaga tashish ishlarida qo'llaniladi. Ularning ikki tipi (ko'rinishi) mavjud: akkumlyatorli elektr aravachalar (elektrokara) va avtoelektroaravachalar. Bu ikkinchi tipdagi aravachalar uncha kuchli quvvatga ega bo'lmagan ichki yonar dvigatelli, o'zgarmas tok generatori va elektrodvigatel bilan jixozlangan. Ammo ikkinchi tip aravachalar amalda qo'llanilmaydi.

17 -rasmda ko'tarma stoli elektrokara sxemasi keltirilgan. Aravacha haydovchi (voditel) tomonidan boshqarib boriladi.




3. ELEKTRYUKLAGICH VA ELEKTR SHTABELERLAR

Elektryuklagich (18 - rasm) elektrokardan farqli o'laroq platforma yoki ko'tarish stoli o'rniga maxsus vilka ko'rinishli yuk ko'taruvchi va eltuvchi mexanizm bilan ta'minlangan. SHuning uchun elektryuklagichlar nafaqat yukni eltib beradi, balki uni 2,8m va undan yuqori balandlikkacha ko'tarib beradi, taxlaydi va tushiradi.



18 – Elektroyuklagich:

19 – rasmda elektrshtabeler keltirilgan bo‘lib, u yuklarni 4,5 m balandlikkacha ko‘tarish kuchiga ega.



19 – rasm. Elektroshtabeler.

Bu shtabelerning aylanish radiusi xammasi bo‘lib 1960 mm ga teng. Shunga ko‘ra u omborxona va sex xonalarining eng tor joylarida xam o‘z vazifasini bermalol bajara oladi.

Elektryuklagich va elektrshtabelerlar barcha sanoat tarmoqlarida o‘zining shovqinsiz ishlashi, ishlaganda zaxarli gazlar chiqarmasligi, yuqori manevryorga


ega ekanligi, oddiy boshqarilishi, hilma-xil operatsiyalarni bajarishi va ko‘p narsa talab etmasligi uchun ham keng tarqalgan.

4. AVTOYUKLAGICHLAR

Avtoyuklagichlar yirik donali yuklarni va idishlarga solingan mayda sochiluvchi yuklarni 1000m masofaga tashish va ularni taxlash (shtabellash) da qo‘llanadi.

Avtoyuklagichlarni asosiy afzal tomoni ularda ko‘p joy oladigan (gromozdkiy) akkumlyator batariyalarining bo‘lmasligi, ichki yonar dvigateli xisobiga og‘irliklarni ko‘tara olishi, xarakat qilish tezligini yuqoriligi bilan ular elektryuklagichlardan farq qiladi. Ularni xar xil yo‘ldan bemalol yura olish qobilyati elektr yuklagichlardan afzallik tomonidir. Avtoyuklagichlarni asosiy kamchiligi - ishlaganda tovush va atrof-muxitga zaxarli gazlarni chikarishidir. SHuning uchun xam avtoyuklagichlardan xona tashqarisida bajariladigan ishlarda foydalaniladi.

Hozirda zamon avtoyuklagichlari universal mashina bo‘lib (19-rasm), ular 5t gacha yukni 4,5m balandlikkacha ko‘tarib berish imkoniyatga ega.



20 – rasm. Avtoyuklagichlar:

a – umumiy ko‘rinishi; b – kranli strela; v – xoda (yog‘och)larni tashuvchi

Quyida avtoyuklagich 4075 ning texnikaviy tavsiflari keltiriladi;

Yuk ko‘taruvchanligi, kg	5000
Gabarit o‘lchamlari, mm;	
vilkasi bilan uzunligi	5200
eni(kengligi)	2120
vilkasining uzunligi	1100
Yuk ko‘tarish balandligi(N),m	1,8; 2,8; 4,5
Yuk ko‘tarish tezligi, m/min	10

Maksimal xarakat tezligi, km/soat-----50
 Dvigatel -----GAZ-66, 85,5kVt, $n=3200\text{min}^{-1}$

5. KERAkli TRANSPORT VOSITALARI SONINI HISOBLASH

Davriy ravishda ishlaydigan relssiz transport vositalarini bir soatlik ish unumi (t/soat) quyidagi formula orqali topiladi.

$$Q_{soat} = \frac{3600 \cdot m \cdot K_{\Gamma} \cdot K_B}{T_u}$$

bu erda; m -transport vositasining eng yuqori yuk ko'tarish ko'rsatkichi, t;
 K_{Γ} -yuk ko'tarishdagi koeffitsient, $K_{\Gamma}=0,6-1,0$;
 K_B -mashinaning vaqtga bog'liklik koeffitsienti, $K_B=0,75-0,85$;
 T_u -bir sikl (reys) uzunligi, sek

$$T_s = t_n + \frac{L_{cp}}{g_{ep}} + t_r + \frac{L_{cp}}{g_x}$$

bu erda; t_n -yuklash vaqti, sek
 L_{sr} -tashiladigan yo'lining o'rtacha uzunligi, m;
 g_{ep} , g_x - yukli va yuksiz mashinaning harakat tezligi, m/sek;
 t_r -yuk tushirish vaqti, sek;

Talab etiladigan mashina soni (dona hisobida)

$$n = \frac{1,15 \cdot Q_{yuk}}{Q_{coam}}$$

bu erda: Q_{yuk} - bir soat ichida tashilishi lozim bulgan yuk mikdori, t/soat;
 1,15 - mashina agregatlarini ta'mirlash uchun ajratilgan inventar koeffitsient.

6. RELSLI TRANSPORT*

Hozirgi zamon yog'ochsozlik va sellyuloza sanoati korxonalari temir yo'l transporti orqali boshqa shaxar va davlatlardan keladigan juda ko'plab xom ashyo, yarim maxsulotlar va kimyoviy moddalarni ishlatadi. Transportning bu turi orqali korxonalardan tayyor maxsulotlar jo'natiladi. SHuning uchun xam yog'ochsozlik va sellyuloza ishlab chiqarish korxonalari ichkarisida (territoriyasi) tarmoqlangan temir yo'l shaxobchalariga ega. Bundan tashqari relsli yo'llar sex ichkarisida (vagonetkalar uchun) quritish kameralari va boshqa joylarda keng qo'llaniladi.

Sanoat korxonalarining temir yo'llari o'zining ishlatilishiga ko'ra ikki asosiy guruxga bo'linadi:

- shox yo‘llar (yaqin oradagi katta temir yo‘lga olib chiqadigan yo‘llar);
- zavod (korxona) ichidagi yo‘llar; ular zavod xududidagi ayrim uchastkalarini bir biri bilan bog‘lab turadi.

Shu narsani bilib qo‘yish foydadan holi bo‘lmaydi. Bizda (MDX da ham) temir yo‘l izlarining kengligi standart bo‘yicha ikki o‘lchamda chiqariladi: keng (buni normal iz deyiladi) va tor izli.

Tekshirish uchun savollar:

1. Relssiz transport vositalarini sanab bering?
2. Relsli transport vositalarini sanab bering?
3. Avtoyuklagichning asosiy uzellarini aytib bering?
4. Avtoyuklagichning ish unumi qanday hisoblanadi?
5. Relssiz transportning afzal va kamchilik tomonlarini aytib bering?
6. Keng va tor izli temir yo‘llar deganda, Siz nimani tushunasiz?
7. Relssiz transport vositalari sonini topish uslubini yozib bering?
8. Talab etiladigan transport vositalarini sonini (dona) hisoblashda ushbu

formuladan foydalaniladi: $n = \frac{1,15 \cdot Q_{\text{юк}}}{Q_{\text{coam}}}$; Formuladagi 1,15 koeffitsenti nimani anglatadi?

Tayanch so‘z va iboralar:

relslar va relssiz transport vositalari, aravachalar, elektroyuklagich, avtoyuklagich, elektrshtabeler.

* Yuklarni tashishda ishlatiladigan transportning bu turi korxona (zavod) ga yuklarni ancha uzoqda joylashgan ishlab chiqarish korxonalaridagi xom ashyo va materiallarni tashib kelishi bilan bog‘liqligi sababli, va u xarakteriga ko‘ra zavod yoki sex ichki transport vositasiga kirmagani uchun bu erda unga ko‘p vaqt ajratilmagan.

TRANSPORT TURLARINI TANLASH. TRANSPORT VOSITALARINI QO‘LLANISH SOXASI

Reja:

1. Korxona ichida qo‘llaniladigan transport vositalari
2. Sex ichida qo‘llaniladigan transport vositalari
3. Yuk oqimlarini (gruzopotokov) taxlil qilish

Ishlab chiqarish korxonalarining transport vositalari foydalanish joyiga ko‘ra ikkita guruxga bo‘linadi:

- korxona ichida (sexlararo) va sex ichida ishlatiladigan transport vositalari.

Korxona ichida qo‘llaniladigan transport vositalari sexlar orasida, omborxona bilan sexlar o‘rtasida va umuman korxonaning bir bino (tom)i ichida joylashmagan bo‘limlari orasida transport aloqalarini amalga oshiradi.

Korxona ichki transport vositalari bilan yuklar bir necha kilometr masofalarga tashib keltiriladi. Yuklar qish oyining sovuq temperaturasida ham tashib keltirilaveradi. SHuning uchun ko‘pchilik korxona ichki transport vositalari (yuklagichlar, tyagach (shatak) li aravacha va boshqalar) avtonom dvigatelli harakatchan (mobil) mashinalardir.

Sex ichida qo‘llaniladigan transport vositalari umumiy texnologik jarayondagi texnologik operatsiyalarni ish bilan uzluksiz ta‘minlashda, yarim maxsulotlarni stanokdan stanokka, omborxona va boshqa joylarga tashib berishda aloqa vazifasini bajaradi. Odatda bu toifa transport vositalari xona, bino ichida ishlagani uchun ular atmosfera yog‘in -sochinlari va qish oyining past temperatura ta‘siridan xoli bo‘ladi va tashib beriladigan masofa, aksariyat xolda 150-200 m dan oshmaydi. SHuning uchun bunday transport vositalari energiyani sex tarmog‘ining o‘zidan oladi va o‘zlari avtonom dvigatelga ega bo‘lmaydi. Ko‘pchilik sex ichki transport vositalari uzluksiz ishlovchi tasmali, zanjirli yoki rolikli konveyerlardan iboratdir. Ammo ayrim xollarda, masalan, quritish kameralarini taxta materiallar bilan yuklashda davriy ravishda ishlaydigan mashinalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularga elektrokara, elektrshtabel, avtoyuklagich, aravacha va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.


Yuk oqimlarini (gruzopotokov) taxlil qilish

Korxona yoki sex ichida qo‘llaniladigan transport vositalarini to‘g‘ri tanlash yuk oqimlari sxemasini taxlil qilish asosida amalga oshadi.

Quyida xom ashyoga ishlov berish korxonalaridagi ayrim olingan asosiy sexlarida yuk oqimi sxemasining tipik stukturasi keltirilgan.


1. Xom ashyo

sexi




bu erda: S_l - xom ashyo
 O_l - Paxta tashish ramalaridan chiqadigan qipiq
 K_l - po'stlog' (kara)
 Sh_t - texnologik qirindi
 P - material
 Z - tayyor zagotovkalar

2. Maxsulot olish sexi



bu erda: S_p - xom ashyo
 S_t - stanoklardan chiquvchi qirindilar
 SM_p - kimyoviy kushimcha
 PS -maxsulot
 OS_p - chiqindilari
 OP_p - plita chiqindilari

3. Yig'ish – pardoqlash sexi



bu erda: D - detallar
 U - uzellar

LK --bo'yoq materiallar
UM- o'rov materiallari
VM_s- yordamchi materiallar
I - tayyor buyumlar

Bu erda ko'rsatilgan yuk oqimlarining sonli miqdori xar bir korxona (sex, bo'lim) uchun berilgan yillik (oylik, smenalik) topshiriqlaridan mos formula orqali xisoblab topiladi. Yuk oqimlari sxemasiga qarab kerakli u yoki bu transport vositalari soni (n) topiladi. Ular bilan xar bir mutaxassislik fanini o'rganishda duch kelinadi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Sexlararo transport vositalarini sanab ko'rsating?
2. Sex ichida qo'llaniladigan transport vositalarini aytib bering?
3. Transport vositalarini to'g'ri tanlash qanday faktorlarga bog'liq bo'ladi?
4. Yuk oqimlari (gruzopotok) ni to'g'ri taxlil qilish uchun qanday faktorlar bo'lishi kerak?

Tayanch so'z va iboralar:

Sex ichida qo'llaniladigan transport vositalari, sexlararo qo'llaniladigan transport vositalari.

6 - MA'RUZA.

MAXSUS YUK KO'TARUVCHI VA TASHUVCHI QURILMALAR

Reja.

1. Materiallarni navlarga ajratish va paket qilib taxlash qurilmalari.
2. Listli buyum va plitalarni shtabel qilib taxlovchi qurilmalar.
3. Tayyor mahsulotlarni tashish va o'rab chiqishda (upakovka) qo'llaniladigan qurilmalar.

1. Materiallarni tayyorlash, ortish, jo'natish va tushirish asosan donalab qo'l mehnati yordamida bajariladi. Arralangan (tilingan) joyidan to is'temolchigacha xar bir taxta kamida 9 marta qo'ldan-qo'lga o'tadi. Materiallarni ular saqlanadigan joylarda ortib-tushirish ishlari juda og'ir va ko'p mexnat qiladi. Bundan chiqishning birdan bir chorasi taxtalarni paket qilib yig'ishdir. SHunda yuk jo'natuvchi va uni qabul qilib oluvchilar omborxonalarida ularning ortish-tushirish ishlarini kompleks mexanizatsiyalash imkon yaratiladi.

Bu vaqtda ishchilarning yuk ortish va tushirishdagi mexnat samarasi 3 va undan ortiq martaga oshadi; ishchi kuchi kamayadi; maxsulotni tovarlik ko'rinishi

yaxshi saqlanadi va ularni xisob-kitob qilish osonlashadi; ishchilarni ish sharoiti yaxshilanadi; ishlab chiqarish madaniyati ortadi.

Materiallar paketlarini o'lchash va konstruksiyalari GOST 6564-68gako'ra reglamentlangan. Unda jo'natish uchun hozirlangan paketlarning o'lchamlari(eni x balandligi, mm xisobida) quyidagicha bo'ladi;


1300 ± 50 x 1200 ± 50 - yarim qattiq stropa materiali bilan bog'langan, barcha transport vositalarida tashiladi;

1250 x 1200-bunda taxta materiallar to'rt o'qli usti ochiq vagonlarda tashiladi;

1000 x 1300- bunda taxta materiallar faqat avtomobillarda va ikki o'qli platformalarda tashiladi;

850 x 800-yuk jo'natuvchi va uni qabul qilib oluvchilar tomonida yuk ko'taruvchanligi 5t gacha bo'lgan ortish-tushirish mexanizmlari bo'lganda bajariladi. O'rab bog'lash uchun yarim qattiq stropa materiallaridan tashqari po'lat tasmalar va simli tortqilar ishlatilishi mumkin.

ko'ndalang bo'ylama xarakati ostida navlarga ajratuvchi qurilmalar. 21 - rasmda shunday qurilmaning prinsipial sxemasi keltirilgan.




21 – rasm. ko'ndalang – bo'ylama harakati ostida navlarga ajratish qurilmasi:

1- yuklovchi ko'ndalang zanjirli transportyor; 2—navlarga ajratuvchi ko'ndalang zanjirli transporter; 3- to'qnashuv plankasi; 4 – aylanma roliklar sistemasi (soni ikkitadan, rasmdan ko'rinib turibti); 5 – navlarga ajralgan taxtalar to'planadigan joy.

U ikki ketma-ket joylashgan ko'ndalang zanjirli transportyorlardan iboratdir; biri yuklash uchun, ikkinchisi navlarga ajratish uchun. Navlarga ajratish transportyoriga ma'lum burchak ostida stalkivayumaya plankasi 3 o'rnatilgan. Harakatdagi taxta bunga kelib urilib, o'z yo'nalishini o'zgartiradi va boshqa yo'lakka o'tadi. Ikkita aylanib turuvchi roliklar 4 orasidan o'tib ketadi. Undan so'ng taxtalar yo'lak-to'plagich 5 tomonga kelib tushadi.

2. List va plita ko‘rinishidagi materiallarni shtabel qilib taxlovchi avtomatning sxemasi 22-rasmda ko‘rsatilgan.

Avtomat gidravlik domkrat montaj qilingan g‘ildirak ustiga o‘rnatilgan. Avtomatning ko‘tarilib xarakat qiluvchi xobotida to‘rtta uzuluksiz aylanib turuvchi tasmadan iborat konveyeri bo‘lib, u shtabelga ma‘lum burchak ostida o‘rnatilgan bo‘ladi. Konveyerdan navbatdagi plita (buyum) o‘tganidan so‘ng xobot avtomatik ravishda berilgin balandlikka ko‘tariladi. Xobot oxirida torets uchlarni tekislaydigan moslama bor. Avtomat taxtalarni juda aniq qilib taxlab beradi, uni sex ichidagi istalgan stanokka olib borish mumkin. U yuqori ish unumiga ega.




22 – rasm. List va plita ko‘rinishidagi buyumlarni shtabel qilib taxlovchi qurilma.

3. List, kip(toy), o‘ram ko‘rinishidagi tayyor bo‘lgan materiallar iste‘molchilarga jo‘natilishidan oldin bir necha operatsiyalardan o‘tadi; tortiladi, listli materiallar sovuq presslarda presslanadi, o‘raladi, sim yoki po‘lat tasmlar bilan bog‘lab chiqiladi, paketlar shakllantiriladi va xokazo. Korxonalarida va qog‘oz qatlamli hamda boshqa plastik materiallarni ishlab chiqarish korxonalarida tayyor maxsulotlar upakovka qilinadi. SHuning uchun konstruktorlarimiz doimo tayyor maxsulotlarni upakovka qilishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish borasida doimo fikr yuritadilar. SHu fikrlar natijasida hozirgi kunda chet ellarga jo‘natiladigan qog‘oz-qatlamli plastiklarni, listli sellyuloza-qog‘oz materiallarini upakovka qiladigan potok liniyalar yaratildi va ular joylarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

23 - rasmda materiallarni upakovka qiladigan mexanizatsiyalashgan liniyaning sxemasi ko‘rsatilgan.

U izox berib o‘tishni talab qilmaydi, chunki u rasmda yaxshi ifodalangan. Liniya yordamida soatiga 200 tagacha o‘ralgan maxsulot olish mumkin.



23 – rasm. Materialli paketlarni upakovka qiluvchi mexanizatsiyalashtirilgan liniya:
 1 – materiallar paketi; 2,8 – avtoyuklagich; 3 – rolganglar to‘plami; 4 - xta uch tomonlarini tekislovchi moslama; 5- ko‘ndalangiga sim yoki po‘lat tasma bog‘lovchi mashina; 6- upakovka material o‘rovchi qurilma; 7- upakovka qilingan paket; 9 – temir yo‘l platformasi (jo‘natishga hoxozirlash)

Takrorlash uchun savollar:

1. Navlarga ajratish qanday amalga oshiriladi?
2. Shtabel qiluvchi avtomatning asosiy ishchi organlarini aytib bering?
3. O‘rab chiqish (upakovka) qiluvchi mexanizatsiyalashgan liniyaning asosiy qismlarini aytib bering?


Tayanch so‘z va iboralar:

paket, paket qilib taxlash, shtabel, shtabel qilib taxlash, mahsulotlarni o‘rash (upakovka), stropa materiallar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR


1. Geyman A.A. Gruzopod‘yomnye i transportnye ustroystva v selliulozno-bumajnoy i lesoximicheskoy promyshlennosti. M., Lesn.prom -t. 1978.-452 s.
2. A.B.Silaev. Gruzopod‘yomnye i transportnye ustroystva v derevoobrabatyvayuyey promyshlennosti. M., Lesn.prom-t. 1978. – 304s
3. V.A.Xrabrov, A.P.Bogdanov, T.A.Rubene. Vnutritsexovoy transport v derevoobrabatyvayuyey promyshlennosti. Riga. LatNIINTI, 1978. – 24s
4. Derevoobrabotka. Prakticheskoe rukovodstvo. SPb., «PROFIKS», 2003. – 544 s.
5. V.D.Erlix. Pod‘yomno - transportnye ustroystva v lyogkoy promyshlennosti. M., 1982. – 320 s.
6. B.A.Tauber. Pod‘yomno-transportnye mashiny. M., Lesn. prom.-t.-1970.- 636 s.
7. B.N. Davidboev. Ko‘tarish – tashish mashinalari. T., “O‘qituvchi”, 1989. – 308 b.
8. B.N.Davidboev. Ko‘tarish – tashish mashinalarini loyixalash. T., “O‘zbekiston”, 2001. – 384 b.

TARQATMAMATERIALLAR



Ko'chma tasmali konveyer:


1 – rama; 2 – taranglik beruvchi baraban; 3 – yuritma barabani; 4 – rezinalashgan tasma; 5 – ko'tarib turuvchi roliklar; 6 – yuklash bunkeri.



Ko'chmas tasmali konveyerlar:




a – umumiy ko'rinishi; b – roliklar tayanchi;

1 – taranglatuvchi yuk; 2 – taranglik beruvchi baraban; 3 – yuklash voronkasi; 4 – tasma; 5 – roliklar uchun tayanchlar; 6 – yuritma barabani; 7 – yuk tushadigan qurilma; 8 – yuritma; 9 – tasmani tozalavchi moslama; 10 – rama; 11 – deflektorli rolik (?); 12 – tasmaning salt (orkaga bo'sh qaytuvchi) bo'g'imi (vetv), 13 – lentaning salt bo'g'imi uchun rolik.





Qattik to'shamali tasmali konveyer:

1 – yuritma barabani; 2 – podshipniklar; 3 – konveyer uchun rama, 4 – zanjirli uzatma; 5 – reduktor ; 6 – kamerli uzatma ; 7 – elektrodvigatel.




Tasmali konveyerlar uchun taranglatish kurilmalari:
a – vintli; b – aravachadagi yukli; v – aravachasiz yukli.




Tasmali konveyerlarni hisoblash sxemasi:

a – tasma eni (kengligi) uchun; b – tarang (tyaga) tortilishi uchun.



Elevatorlar:

a – tasmali, b – zanjirli; 1 – yuritma barabani, 2 – tortqi (natyajnoy) barabani, 3 – tasma, 4 – kovsh (cho‘mich).




Osma konveyer:

a – tortkili (tyagovyy), b – itariluvchi (tolkayushiy), v - yuk tashuvchi (gruzovedushiy)


a – ga tegishli: 1 – katok (katka) , 2 - osilgan moslama , 3 – plastinkali zanjir, 4 – maxsus aravacha(vga tegishli)

b – ga tegishli: 1 – katok ,2 – osma moslama, 3 – zanjir , 4 – yuk tashuvchi aravacha, 5 va 6 – relsli yo‘l, 7 va 8 – kulachki.




Vint (shnek) li konveyer:

1 – vint(shnek) , 2 – tarnov (nov), 3 – shnek vali uchun oraliq tayanch, 4-5 shnek vali uchun podshipniklar, 6 – yuklovchi lyuk, 7 – tozalash uchun yuk, 8, 9 – yuk tushadigan lyuklar, 10 – dvigatel, 11 – reduktor, 12,13 – muftalar.



Yuritmal va yuritmasiz rolikli konveyerlar:

a – gorizontal yuritmasiz; b – nishabli yuritmasiz (gravitatsion); v- yuritmal konveyer (ustidan ko‘rinishi).



Pnevmotransport qurilmalari:

a- soʻruvchi, b – dam berib hxaydovchi, v – aralash usuli

a – sxema uchun:


1 - maxsus qurilma(soplo), 2 – elastik shlang, 3 – truboprovod, 4 –yuk boʻshatiladigan siklon, 5 – shlyuzli zatvor 6 – chang yutgich, 7 – vakuum nasos, 8 – patrubka .

b – sxema uchun:


3 – truboprovod, 4 – yuk boʻshaladigan siklon, 5 – shlyuzli zatvor, 6 6 – filtr , 8 va 8' - patrubkalar, 9 – taʼminlagich, 10 – havo yigʻgich (resiver), 11 – kompressor.

v – sxema uchun:


1 – soplo, 3 – truboprovod, 4 va 4' – yuk boʻshaladigan siklon, 5 – shlyuzli zatvor, 6 va 6' – filtr, 7 – pnevmonasos, 10 – resiver, 12 – magistral.



Pnevмотransпорт qurilmalarida oʻrnatiladigan filtrlar:
a - suvli; b – silkitadigan materialdan gʻilofli.



Tashuvchi pnevmoqurilma:
1 – ventilyator; 2- shlyuzli zatvor; 3 – siklon.



Qattiq jismlarni gidravlik usulida tashuvchi qurilma:


a – haydovchi, b – so‘ruvchi.

A – sxemasi uchun:


1 – nasos, 2 – suvli idish yoki rezervuar, 3 – truboprovod, 4 – bunker,
5 – ta‘minlagich, 6 – magistral yo‘l, 7 – to‘kilgan yuk

b – sxema uchun:

1 – lotok, 2 – aralashtirgich, 3 – pulpa nasos, 4 – truba, 5 – groxot (suvdan
ajratgich), 6 – voronka, 7 – to‘kilgan yuk, 8 – suv rezervuari, 9 – nasos,
10 – truba (kaytar suv uchun)




Qo‘l aravacha sxemesi.





Etajerkali aravachaning sxemasi:

1 – karkas; 2,3 – g‘ildiraklar; 4 – polka; 5 – karkas ramasi.




Aylanma platformali travers arachaning sxemasi:


1 – platforma; 2 – aylanma o‘q; 3 – rama; 4 – g‘ildirak; 5 – yo‘l fiksatori;
6 – perila.




Elektryuklagich va elektr shtabelarlar



Elektroyuklagich:




Elektroshtabeler.




Avtoyuklagichlar:

a – umumiy ko‘rinishi; b – kranli strela; v – xoda (yog‘och)larni tashuvchi




Ko‘ndalang – bo‘ylama harakati ostida navlarga ajratish qurilmasi:

1- yuklovchi ko‘ndalang zanjirli transportyor; 2—navlarga ajratuvchi ko‘ndalang zanjirli transporter; 3- to‘qnashuv plankasi; 4 – aylanma roliklar sistemasi (soni ikkitadan, rasmdan ko‘rinib turibti); 5 – navlarga ajralgan taxtalar to‘planadigan joy.



List va plita ko‘rinishidagi buyumlarni shtabel qilib taxlvchi qurilma.



Materialli paketlarni upakovka qiluvchi mexanizatsiyalashtirilgan liniya:

1 – materiallar paketi; 2,8 – avtoyuklagich; 3 – rolganglar to‘plami; 4 - xta uch tomonlarini tekislovchi moslama; 5- ko‘ndalangiga sim yoki po‘lat tasma bog‘lovchi mashina; 6- upakovka material o‘rovchi qurilma; 7- upakovka qilingan paket; 9 –temir yo‘l platformasi(jo‘natishga hxoziqlash)

FANGA OID TESTLAR (O'zbekcha)

№1 fan bobi-3 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi- 2

Sellyulozaning ko'pchilik erituvchilarda erimasligining sababi nimada
Strukturasining qattiqligi va vodorod boqlarining ko'pligida
Polyarligida
Molekulalar orasidagi boq kuchlarining kattaligida
Sellyuloza strukturasining piran shaklida bo'lganligida

№2fan bobi- 3 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-2

Sellyulozaning eruvchanligini oshirish uchun nima qilish kerak
Molekulalarora boqlarni pasaytirish kerak
Yaxshi erituvchi tanlash kerak
qisman eterifikatsiyalash kerak
To'la efirlash kerak

№3fan bobi-2 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-1

Sellyuloza strukturasining ketma ketligini o'zgartirishdan maqsad nima
Eruvchanligini oshirish
Sellyulozani eterifikatsiya reaksiyasini tezlashtirish
Olingan maqsulot sifatini yaxshilash
Sellyuloza sifatini oshirish

№4 fan bobi-3 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-1

Sellyulozaning ishqorda eriydigan polimerlanish darajasining qiymati nechaga teng
150 - 200
250
200
150

№5fan bobi-2 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-1

Sellyulozaning suyuqliklarda qo'llanish issiqligi qaysi usulda aniqlanadi
Kolorimetrik
Termostatik
Termometrik
Krioskopik

№6fan bobi- 3 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-2

Sellyuloza preparatlarining spirt va organik kislotalardagi qo'llanish issiqligini aniqlash orqali uning qaysi xossasini aniqlash mumkin
Strukturasini
qavokligini
Zichligini
ON gruppasini

№7 fan bobi- 1 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-2

Gidrat Sellyuloza Sellyulozadan nima bilan farq qiladi
Vodorod boqlarini sonini kamayishi bilan
Amorf qismini kamayishi bilan
Kristallik qismini kamayishi bilan
Gidroksil guruxilarini soni bilan

№ 8fan bobi- 2 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-2

Sellyuloza materialiga suvni shimmaslik xossa berish uchun nima qilish kerak
Kremniy organik modda bilan ishlov berish lozim
Ishqoriy metall tuzlari bilan ishlov berish kerak
Temir tuzi eritmasi bilan ishlov berish kerak
Kremniy suspenziyasi bilan ishlov berish kerak

№ 9fan bobi-1 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-1

Sellyuloza tolalarining mikrostrukturasini kaysi usulda yaxshi urganish mumkin
Elektron mikroskopda
Mikroskopda
Rentgent usulida
Fizika-kimyoviy usulda

№ 10fan bobi- 1 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-1

Paxta tolasi necha qatlamdan iboratq
3
4
6
5

№ 11fan bobi- 1 fan bo'limi- 2 qiyinlik darajasi-1

Lyon tolasi ko`ndalang kesimi paxta tolasi ko`ndalang kesimidan nima bilan farq qiladi
qatlamlar orasidagi modda miqdori
qatlamlar soni
qatlamlar orasidagi masofa
qatlam qalinligi

№ 12fan bobi-1 fan bo'limi- 2 qiyinlik darajasi-1

Paxta Sellyuloza tolasining gidrolizidan keyingi sruktura elementlaring eni va bo`yida farq bormi
Bo`yi enidan birnecha baravar katta
Yni va bo`yi zich joylashgan struktura elementlardan "kristall"dan iborat
Yni 100 angstem atrofida, bo`yi esa 1200 angstrem
Farqi yo`q

№ 13fan bobi-2 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-2

Gidratsllyulozaning o`rtacha polimerlanish darajasi, olingan tola mustaxkamligiga qanday ta`sir etadi
Mustaxkamligini oshiradi
Ta`sir etmaydi
Polimerlanish darajasi kam dispersli bo`lsa oshiradi
Polimerlanish darajasida molekulasi past qismi kam bo`lsa tola mustaxkamligi oshadi

№ 14fan bobi-1 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-1

Paxta momiqi ifloslik darajasiga qarab nechta sinflarga bo`linadi
3
5
2
4

№ 15fan bobi- 1 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-1

Paxta momiqini sifatini aniqlash uchun necha gramm namuna olish kerak
100
50
60
80

№ 16fan bobi-1 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-1

Paxta momiqini ifloslik darajasini qaysi metod bilan aniqlanadi
sul'fat kislotada eritish
etalon
suvda qaynatish
qo'l bilan titish

№ 17fan bobi-1 fan bo'limi- 2 qiyinlik darajasi-1

Sellyulozani olishda natriy ishqori eritmasi nima uchun ishlatiladi
yo'ldosh qo'shimchalardan tozalash
oqartirish
yuvish
strukturasini yaxshilash

№ 18fan bobi-2 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-1

Sellyuloza ishlab chiqarishda vodorod peroksidi nima maqsadda ishlatiladi
oqartirish
sarqaytirish
tozalash
yuvish

№ 19fan bobi- 3 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-1

Qoqoz ishlab chiqarishda kanifol' nima maqsadlar uchun ishlatiladi
elimlovchi
boqlovchi
oqartiruvchi
sarqaytiruvchi

№ 20fan bobi- 3 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-1

Qoqoz ishlab chiqarishda qo'llaniladigan tabiiy to'ldiruvchilar soni nechta?
6
5
8
11

№ 21fan bobi-3 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-1

Qoqoz ishlab chiqarishda ishlatiladigan kimyoviy o'zgartirilgan to'ldiruvchilar soni nechta?
6
8
7
10

№ 22fan bobi- 3 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-2

Kaolin to'ldiruvchi Mamlakatimizning qaysi shaqrida ishlab chiqariladi
Angren
Olmalik
CHirchiq
Farqona

№ 23fan bobi- 3 fan bo'limi- 2 qiyinlik darajasi-2

Titan dioksidi ikki xil nomda ishlab chiqariladi Ularning qanday nomlanadi
anataz va rutil
titan dioksidi
anataz
oq titan

№ 24fan bobi- 1 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-2

Paxta sellyulozasini kuli necha % ni tashkil etadi
0,075-0,01
0,2-0,3
0,1-0,2
0,3 - 0,5

№ 25fan bobi-2 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-3

To'ldiruvchilarni fiksatsiyalash sistemasi nimadan iborat
yordamchi kimyoviy moddalarni kerakli darajada ushlab qolish
to'ldiruvchilarni cho'ktirish
to'ldiruvchilarni elimlovchi
to'ldiruvchi

№ 26fan bobi-3 fan bo'limi- 2 qiyinlik darajasi-3

Qoqoz ishlab chiqarishda necha xil kaogulyantlar ishlatiladi
2
3
5
6

№ 27fan bobi- 2 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-1

To'ldiruvchilar qoqozning qaysi xossalriga ta'sir etadi
bularning hammasiga
silliqlik
yumshoqlik
bo'yoq yutish va siqilish

№ 28fan bobi-3 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-1

To'ldiruvchi konsentratsiyasi necha g/l bo'ladi?
330-340
250-300
350-400
400

№ 29fan bobi- 3 fan bo'limi- 3 qiyinlik darajasi-1

Kanifol' elimini tayyorlashni nechta usuli keng tarqalgan
3
2
4
5

№ 30fan bobi- 3 fan bo'limi- 2 qiyinlik darajasi-1

Kanifol' o'rmini bosuvchi moddalar soni nechta
14
12
13
15

№ 31fan bobi-3 fan bo'limi- 3 qiyinlik darajasi-3

Melamin-formal'degid smolasi qoqozni qaysi ko'rsatkichlarini yaxshilaydi
bularning hammasiga
namga chidamliligini
mustaxkamligini
bukilishga va yirtilishga, ishqalanishga chidamliligini

№ 32fan bobi- 3 fan bo'limi- 3 qiyinlik darajasi-3

Alyuminiy sul'fat eritmasining 5 va 10 % eritmasi qoqoz ishlab chiqarishda qaysi maqsadlarda qo'llaniladi
elimlanish sifatini yaxshilashda
tolalarni cho'ktirishda
oqava suv tarkibidagi chiqindilardan tozalashda
sifatini yaxshilashda

№ 33fan bobi- 3 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-2

qoqozni bo'yashni nechta usuli bor
2
3
4
5

№ 34fan bobi-2 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-2

Xar xil bo'yoq eritmalarini tayyorlash nechta apparatlarda bajariladi
2
1
3
qar biri aloqida

№ 35fan bobi-3 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-3

qoqoz ishlab chiqarishda natriy KMTs tuzining necha % almashinish darajasi ishlatiladi
40
50
60
65

№ 36fan bobi-4 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-2

Oqava suvni tozalashda PAA eritmasini necha % eritmasi ishlatiladi
0,1
1
2
0,2

№ 37fan bobi-1 fan bo'limi- 2 qiyinlik darajasi-1

Paxta sellulozasini ishlab chiqarishda necha xil suv ishlatiladi
3
2
4
5

№ 38fan bobi- 4 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-1

Tabiiy suvni tozalashning necha xil metodlari mavjud
9
8
10
12

№ 39fan bobi-4 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-2

Suvning qattiqligi tarkibidagi SaO necha mg-ekv/l qarab necha turga bo'linadi
5
4
6

7

№ 40 fan bobi-4 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-2

Yumshoq suvning tarkibidagi karbonat miqdori, mg-ekv/l da nechiga teng
1,5-3,0
1-2
3-4
2-3

№ 41 fan bobi-4 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-2

Sellyuloza va qoqoz ishlab chiqarishda tabiiy suvni tozalashning nechta asosiy usuli mavjud
3
2
4
5

№ 42 fan bobi-4 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-2

Sellyuloza va qoqoz ishlab chiqarishda suv qaysi man`balardan foydalaniladi
yer osti va yer usti
quduq
yomqir
qor

№ 43 fan bobi-4 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-1

qanday suv dizenfektsiyalanadi
ichimlik suvi
sanoat suvi
suqorish suvi
qammom suv

№ 44 fan bobi-4 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-1

Tozalangan oqava suvni tozalashdan maqsad nima
dizenfektsiyalash
tozalash
neytrallash
zararsizlantirish

№ 45 fan bobi-4 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-2

Tozalangan oqava suvni qaysi usul bilan tuzsizlantiriladi
ionalmashtirish
fil'trlash
yuvish
tindirish

№ 46 fan bobi-2 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-2

To`yingan ionitlarni qaysi kationitlar bilan almashtiriladi
vodorod
natriy
kaliy
kal'tsiy

№ 47 fan bobi-2 fan bo'limi-1 qiyinlik darajasi-2

Solishtirma sarf tayyor maqsulotni necha kg miqdoriga nisbatan olinadi
1000
100

200
500

№ 48 fan bobi- 4 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-3

qoqoz ishlab chiqarishda paxta momiqini solishtirma sarfi necha kg tashkil etadi
110
90
100
105

№ 49 fan bobi- 1 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-2

Bir tonna paxta sellyulozasini olish uchun necha metr kub suv sarflanadi
5
2
3
4

№ 50 fan bobi-4 fan bo'limi- 2 qiyinlik darajasi-3

Karboksimetilsellyulozani qaysi shakli elim tayyorlashda ishlatiladiq
- Na
- ON
- K
- Sa

№ 51 fan bobi-4 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-2

Kaogulyant sifatida kvartslar o'rnida alyuminiy sul'fat tuzini ishlatilish sababi nimadaq arzonligida
topilishi osonligida
miqdori ko'pligida
masofasi yaqinligida

№ 52 fan bobi- 4 fan bo'limi- 3 qiyinlik darajasi-3

Melamin-formal'degid smolasi tarkibida qancha % formal'degid borq
0,5
0,2
0,4
1,0

№ 53 fan bobi- 4 fan bo'limi-2 qiyinlik darajasi-3

Kraxmal sanoatda nechi xil navda ishlab chiqariladiq
4
2
3
5

№ 54 fan bobi- 4 fan bo'limi- 1 qiyinlik darajasi-2

Tayyorlangan kraxmal elimini rN ko'rsatkichi nechi bo'lishi kerakq
5,8-6,8
5-5,5
6-7
7-8

№ 55 fan bobi-3 fan bo'limi- 2 qiyinlik darajasi-2

Sellyuloza va qoqoz ishlab chiqarishda ximikatlardan necha xil ishchi eritmalar tayyorlanadi?
7
5

6
8

№ 56 fan bobi- 3 fan bo‘limi-2 qiyinlik darajasi-2

qoqoz ishlab chiqarishda kal'tsiy karbonat to'ldiruvchisini ishlatishdan maqsad nimaq
ko`p yilga chidamliligi
mustaxkamligi
gidrofilligi
oqligini oshirish

№ 57 fan bobi-4 fan bo‘limi-2 qiyinlik darajasi-3

To'ldiruvchilar miqdorini qoqoz tarkibida ko`proq ushlanib qolish uchun qanday modda qo`shiladè?
flokulyator
ishqor
tuz
kraxmal

№ 58 fan bobi-4 fan bo‘limi-2 qiyinlik darajasi-2

qoqoz quyush mashinasini setkasida sellyulozani suvsizlantirish tezligini oshirganda to'ldiruvchè suvga o`tib ketadimi
o`tib ketadi
o`tmaydi
sezilarli ta`sir etmaydi
kamaytiradi

№ 59 fan bobi-4 fan bo‘limi- 3 qiyinlik darajasi-2

